

Payg'ambarlar qissasi: Podshoh oldida



15:16 / 12.10.2018 8506

(davomi)

10

Shaharda juda katta va juda zolim podshoh bor edi. Odamlar o'sha podshohga sajda qilardilar. Podshoh eshitdiki, Ibrohim (a.s.) Allohga sajda qiladilar va Undan boshqa hech bir zotga sajda qilmaydilar. Podshoh bundan g'azablendi va Ibrohim (a.s.)ni (chaqirishni) buyurdi. Ibrohim (a.s.) uning oldiga keldilar, u zot Allohdan boshqa hech kimdan qo'rqmas edilar. Podshoh: "Robbing kim?" dedi. Ibrohim (a.s.): "Robbim Alloh!" dedilar. Podshoh: "Ey Ibrohim! U Alloh kim?" dedi. Ibrohim (a.s.): "U tiriltiruvchi va o'ldiruvchidir", dedilar. Podshoh dedi: "Men ham tiriltiraman va o'ldiraman". Podshoh bir kishini keltirdi va uni o'ldirdi. Yana bir kishini keltirdi uni o'ldirmadi. Podshoh dedi: "Men tiriltiraman va o'ldiraman, bir kishini o'ldirdim va birini o'ldirmadim". Podshoh nodon edi, shuningdek barcha

mushriklar ham. Ibrohim (a.s.) podshohga va qavmiga tushuntirishni xohladilar. Ibrohim (a.s.) podshohga: “Albatta, Alloh quyoshni mashriqdan chiqaradi, bas, sen uni mag‘ribdan chiqargin-chi”, dedilar. Shunda podshoh hayratda qoldi va sukut saqladi. Podshoh sharmanda bo‘ldi va biror javob topa olmadi.

11 – Otani da‘vat etish

Ibrohim (a.s.) o‘z otalarini ham haq yo‘lga da‘vat etishni xohladilar va unga: “Ey otajon! Nima uchun eshitmaydigan, ko‘rmaydigan va senga biror foyda bera olmaydigan narsaga ibodat qilasan?” dedilar. Nima uchun foyda ham bera olmaydigan, zarar ham bera olmaydigan narsaga ibodat qilasan? “Ey otajon! Shaytonga ibodat qilma”. Ey otajon! Rahmonga ibodat qil!”, dedilar.

Ibrohim (a.s.)ning otasi bundan g‘azablendi va: “Men seni uraman, meni tinch qo‘y va biror narsa dema”, dedi. Ibrohim (a.s.) haliym edilar va otalariga: “Omon bo‘l”, men bu yerdan ketaman va robbimga duo qilaman”, dedilar.

Ibrohim (a.s.) juda afsuslandilar va boshqa bir shaharga ketishni va robbilariga ibodat qilib, odamlarni Allohga da‘vat etishni xohladilar.

12 – Makkaga

Bu holatdan Ibrohim (a.s.) qavmi, podshoh va Ibrohim (a.s.)ning otasi g‘azablanishdi. Ibrohim (a.s.) boshqa shaharga safar qilishni xohladilar. U yerda Allohga ibodat qilib, odamlarni haq yo‘lga da‘vat etishni xohladilar.

Ibrohim (a.s.) otalari bilan vidolashgan holda o‘z shaharlaridan chiqib ketdilar. Ibrohim (a.s.) Makkani qasd qilib yo‘lga chiqdilar va xotinlari Hojar o‘zlari bilan birga edi. Makka shunday ediki, u yerda na o‘t-o‘lan va na shox-shabba yo‘q edi. U yerda quduq ham, anhor ham yo‘q edi. U yerda hayvonlar ham, odamlar ham yo‘q edi. Ibrohim (a.s.) Makkaga yetib kelib, u yerga tushdilar. Ibrohim (a.s.) ayollari Hojar va o‘g‘illari Ismoilni shu yerga tashlab ketdilar. Ibrohim (a.s.) ketishni xohlaganlarida ayollari Hojar: “Ey Sayyidim, qayerga? Meni bu yerga tashlab ketasizmi? Bu yerda suv ham, ovqat ham yo‘q-ku? Sizga buni Alloh amr qildimi?” deganida, Ibrohim (a.s.): “Ha!” dedilar. Hojar: “Unday bo‘lsa, bizni zoye qilib tashlab qo‘ymaydi”, dedilar.